O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail:davexpertiza@exat.uz, devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH
Sana:22-06-2022 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 47868

Obyekt nomi «Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 4-uyda joylashgan, "O‘zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ xududida qurilish ishlari 1-bosqich»

Buyurtmachi – "O`ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI" AЖK.
Bosh loyihachi - "SHUKURJON-SHS" X/K.
Litsenziya AL-000382 05-12-2019 yil.
Moliyalashtirish manbai - “O`ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI” AJning o‘z mablag‘lari.
Bosh pudratchi – Tanlov natijalari asosida aniqlanadi.
Qurilish turi Qayta qurish (rekonstruksiya).
Murojaat raqami: № 36508

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 07.05.2021 yildagi 1726-1726266-18955-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.2. Belgilangan tartibda 2021 yilda kelishilgan va Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.3. 2022 yilda “O'ZGASHKLITI” DUK tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to’g’risidagi xulosa.

1.4. Loyihachi va Buyurtmachi tomonidan loyiha ishlarini bajarish uchun tuzilgan 2021-yil 4-noyabrdagi 07-21-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar 36508-sonli murojaatga asosan loyiha tarkibiga muvofiq “Ishchi loyiha” hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish shartlari.

Tashqi havoning hisoblangan qishki harorati – 14°C;

Shamol tezligining normativ bosimi – 0,38 kPa;

Qor qatlamining normativ og‘irligi – 0,50 kPa;

Uchastkaning hisoblangan seysmikligi – 9 ball.

Seysmik xususiyatlar bo'yicha tuproq toifasi-I (birinchi).

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,70 m.

Binoning poydevoriga asos bo‘lib muhandislik-geologik xulosasiga ko‘ra, lyosli suglinok, yosssimon tuproqlar och jigarrang makrog'ovakli, namligi past, nam, qattiq va yarim qattiq tuproqlar xizmat qiladi. To‘kma va asos bo‘lishga yaramaydigan gruntlarni to‘liqligicha olib tashlansin.

O‘ta cho‘kuvchanlik bo‘yicha grunt sharoitlarining turi – II (ikkinchi).

Yerosti suvlari yer yuzasidan 4,4-4,9 m chuqurlikda ochilgan.

Xandaq ochilganda muhandislik-geologik xulosasini bergan tashkilot bilan kelishib ish boshlansin.

3.2. Arxitektura-rejaviy va konstruktiv yechimlar.

Mazkur loyihada quyidagi ishlar nazarda tutilgan:

- Elektr ta'minoti bilan ta'minlash ishlari;

- Mavjud devorlarni buzish va qayta qurish ishlari;

- Gaz ta'minoti bilan ta'minlash ishlari.

Konstruktsiyasi - devorlar quyma temir beton karkasdan nazarda tutlilgan bolib to'ldiruvchi fifatida shlakli bloklar qabul qilingan.

Poydevori lentali quyma temir betondan.

Tom yopma - metalkonstruksiyali karkasga mahkamlangan profnastildan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1.Elektr ta'minoti.

Loyihalanayotgan ob’ekt elektr ta’minotining ishonchliligi darajasiga ko‘ra – II toifaga kiradi. Loyihada mavjud bo‘lgan 3073-sonli va 4341-sonli transformator punktlari orasidagi kabel tarmog‘ini rekonstruksiya qilinishi nazarda tutilgan. Ruxsat etilgan quvvat 366 kVt ni tashkil etgan. Ulanish nuqtasidan ob’ektgacha 10 kV kuchlanishli APvPu 3(1x120mm2) turidagi 725 metr uzunlikdagi kabel tarmog‘ini qurish ko‘rsatilgan.

4.2. Gaz ta'minoti.

Loyihada gazni 57x3.5mmli po'lat quvur bilan mudulli qozonxonagacha 130 m tortib kelingan. Gaz quvurlari muhandislik tarmoqlari bilan kesishgan joylarda 108x3.5mmli po'lat quvur bilan qoplanib o'tkazilgan. Mazkur loyiha "Hududgaz Poytaxt" gaz ta'minoti siliali bilan kelishilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va 04.06.2022-yildagi 45577-sonli xulosasi taqdim etilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyihaning hujjatlari ekspertizaga Buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim etilgan. Buyurtmachi loyihani tasdiqlashdan oldin O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining ekologiya ekspertizasidan o'tkazishi lozim.

6.2. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaga ekspertiza e’tirozlari bo‘yicha asosiy o‘zgartishlar kiritildi va takliflar berildi.

6.3. Ekspertning ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra hisoblangan dastlabki 998 486,454 ming. so‘mlik qiymat 253 417,596 ming. so‘mga kamaytirilgan va 745 068,858 ming. so‘mni tashkil qilgan, ya’ni:
Qurilish montaj ishlari – 647 885,964 ming. so‘m;
Qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) – 97 182,895 ming. so‘m.
Qiymatning kamaytirilishi asosan qurilish mashinalari va mexanizmlari uchun mash.soat qiymati va asosiy qurilish materiallari narxlarini aniqlashtirish hisobiga va boshqa kamchiliklar evaziga erishilgan.
6.4. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining va buyurtmachining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

6.5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorining III bob 29-bandida ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgarligi belgilangan.

6.6. Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida (loyihachi tashkilot tomonidan) loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritgan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar.

6.7. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.8. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

7. Xulosalar.

"Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 4-uyda joylashgan, "O‘zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ xududida qurilish ishlari 1-bosqich" bo‘yicha ko‘rib chiqilgan ishchi loyihasi, ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, keyingi ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: RADJABOV JAMSHID SHUXRATOVICH